

MAVZU. PSIXOLOGIK XIZMAT KO'RSATISHNING NORMATIV HUJJATLARI BILAN ISHLASH

Reja:

1. O'zbekiston Respublikasida ta'lim tizimida psixologik xizmat faoliyatini tartibga soluvchi asosiy normativ-huquqiy hujjatlar va mazmuni.
2. Maktab psixologining huquq va majburiyatlarini belgilovchi hujjatlar va ularning mohiyati.
3. Psixologik xizmatni tashkil etish, hisobot yuritish va hujjatlashtirish talablari.

Tayanch so'z va iboralar: *psixologik ma'rifat va tashviqot, psixologik-pedagogik tashxis, psixologik profilaktika, psixologik korreksiya, psixologik maslahat, kasb-hunarga yo'naltirish.*

Maqsad:

Ta'lim muassasalarida psixologik xizmat ko'rsatishga oid normativ-huquqiy hujjatlarni chuqur o'rganish, ularning mazmun-mohiyatini tushunish, amaliyotda to'g'ri qo'llash orqali o'quvchilar, pedagoglar, ota-onalarga psixologik yordam ko'rsatish sifatini oshirish hamda psixologik xavfsizlikni ta'minlash.

Vazifa

1. Psixologik xizmat faoliyatiga oid amaldagi qonunlar, qarorlar, nizomlarni o'rganish va tahlil qilish.
2. Normativ-huquqiy hujjatlar asosida psixologik xizmat ko'rsatish tartibi va mexanizmlarini tushunish.
3. Ta'lim muassasalarida psixologik xizmatni tashkil etish bo'yicha me'yoriy hujjatlarni to'g'ri yuritish.
4. O'quvchilar, pedagoglar va ota-onalar bilan ishlashda huquqiy-me'yoriy hujjatlarga tayanilgan yondashuvni qo'llash.

1. O'zbekiston Respublikasida ta'lim tizimida psixologik xizmat faoliyatini tartibga soluvchi asosiy normativ-huquqiy hujjatlar va mazmuni.

Ta'lim tizimida psixologik xizmat faoliyatini tartibga soluvchi asosiy normativ-huquqiy hujjatlar- O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrdagi **"Ta'lim to'g'risidagi"** hamda 2024-yil 5-noyabrdagi **"Aholiga psixologik yordam ko'rsatish"** to'g'risida 989-sonli Qonunlari, O'zbekiston Respublikasida Vazirlar Mahkamasining **"O'quvchilarni psixologik-**

pedagogik qo'llab-quvvatlash ishlarini yanada takomillashtirish to'g'risida 2019-yil 12-iyuldagi 577-son qaror 1-ilovasi **"Umumiy o'rta va o'rta maxsus davlat ta'lim muassasalarida psixologik xizmat faoliyatini tashkil etish to'g'risida"** hamda **"Bolalarga nisbatan zo'ravonlik holatlarini aniqlash, zo'ravonlik xavfi darajasini baholash, himoya qilish rejasini ishlab chiqish hamda uni amalga oshirish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"** 2025-yil 14-iyuldagi 440-sonli qarori bilan tasdiqlangan **"Bolalarga nisbatan zo'ravonlik holatlarini aniqlash, zo'ravonlik xavfi darajasini baholash, himoya qilish rejasini ishlab chiqish hamda uni amalga oshirish tartibi to'g'risidagi"** Nizomi, Maktabgacha va maktab ta'limi vazirining **"Ta'lim tashkilotlari pedagogik jamoalarida sog'lom psixologik muhitni yaratish va qo'llab-quvvatlash"** to'g'risida 2025-yil 6-martdagi 81-sonli buyrug'1 bilan tasdiqlangan **"Maktabgacha, umumiy o'rta va maktabdan tashqari ta'lim tashkilotlarida bolalarga nisbatan zo'ravonlikni oidini olish, bartaraf etish hamda qarshi kurashish to'g'risida"**gi Nizomlaridir.

Psixologik xizmatning maqsadi o'quvchilarning ma'naviy va aqliy rivojlanishi, barkamol shaxs sifatida shakllanishi, faol ijtimoiy moslashuvi, ularning yosh davrlari bo'yicha rivojlanishida salomatligini muhofaza qilish, uzluksiz ta'lim jarayonida o'zligini anglashi, individual psixologik xususiyatlari, shaxsiy imkoniyatlari, qobiliyatlarini namoyon etishlari uchun psixologik-pedagogik shart-sharoitlar yaratishdan iborat.

Quyidagilar psixologik xizmatning **asosiy vazifalari** hisoblanadi:

ta'lim muassasalarida psixologik xizmat faoliyatini tashkil etish ishlarini sifatli tashkil etish, shu jumladan, ish faoliyatiga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llash orqali o'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish ishlari samaradorligini oshirish;

o'quvchilarning qobiliyati, layoqati, qiziqishlari hamda kasb-hunarga moyilliklari asosida kasb-hunarni to'g'ri tanlashlariga ko'maklashish;

turli yosh davrlarida o'quvchilarning shaxsiy, aqliy va ijtimoiy rivojlanishini psixologik jihatdan kuzatib borish, ta'lim-tarbiyadagi psixologik nuqsonlarni aniqlash, ularning aqliy rivojlanishida sodir bo'lishi mumkin bo'lgan har qanday salbiy og'ishlarning oldini olish;

o'quvchilar ta'lim muassasasining ijtimoiy muhitiga moslasha olmaslik holatlarini korreksiyalash, ularni ijtimoiy rehabilitatsiya qilish bo'yicha tadbirlarni tashkil etish va amalga oshirish;

pedagogik jamoalarda sog'lom psixologik muhitni yaratish va qo'llab-quvvatlash, jamoa a'zolarining hissiy-emotsional holatlari, shaxslararo munosabatlar va ziddiyatli xatti-harakatlarni korreksiyalash, ularning psixologik madaniyatini yuksaltirish;

iste'dodli va iqtidorli o'quvchilarni aniqlash, ularning individual-psixologik, fiziologik xususiyatlari va qiziqishlarini o'rganish, qobiliyatlarini namoyon etishlari va rivojlantirishlari uchun shart-sharoitlar yaratish;

axborot-psixologik xurujlarning xavfi, Internet jahon axborot tarmog'ining salbiy ta'siri, yoshlar tarbiyasiga xavf solayotgan "Ommaviy madaniyat"ning kirib kelishi holatlarining oldini olishga qaratilgan tadbirlarni o'tkazish;

pedagog xodimlar, o'quvchilar hamda ota-onalarning psixologik-pedagogik bilimlarini oshirishga ko'maklashish, pedagog xodimlar, ota-onalar va jamoat tashkilotlarining samarali hamkorligini ta'minlash.

Quyidagilar psixologik xizmat faoliyatining **asosiy yo'nalishlari hisoblanadi:**

- psixologik ma'rifat va tashviqot;
- psixologik-pedagogik tashxis;
- psixologik profilaktika;
- psixologik korreksiya;
- psixologik maslahat;
- kasb-hunarga yo'naltirish.

Guruhlarda ishlash.

Ishtirokchilar 3 guruhga bo'linadi va o'zlariga taqdim etilgan quyidagi yo'nalishlar bo'yicha ma'lumot berishadi:

1-guruh: "Psixologik ma'rifat va tashviqot" hamda "Psixologik-pedagogik tashxis";

2-guruh: "Psixologik profilaktika" va "Psixologik korreksiya";

3-guruh: "Psixologik maslahat" va "Kasb-hunarga yo'naltirish".

Trener xulosasi

Psixologik xizmat faoliyatining asosiy yo'nalishlari quyidagilarni nazarda tutadi:

a) psixologik ma'rifat va tashviqot yo'nalishida:

pedagogik jamoa, sinf rahbarlari va ota-onalarning psixologik savodxonligi va kompetentligini oshirishda dastlabki psixologik-pedagogik bilim va tushunchalar, har bir o'quvchiga individual yondashuv orqali oilaviy munosabatlar, shaxsiy gigiyena va sog'lom turmush bo'yicha tavsiyalar berish;

o'quvchilar, pedagog xodimlar, ota-onalar bilan yakka va jamoaviy shakldagi suhbatlar, maslahatlar, seminar-treninglar tashkil etish, turli xil yig'ilishlarda ma'ruzalar bilan chiqishlar, shuningdek, ommaviy axborot vositalari orqali psixologik bilimlarni berib borish;

b) psixologik-pedagogik tashxis yo'nalishida:

o'quvchilarning ta'lim-tarbiya jarayonidagi ishtiroki, ularning har bir holat, voqea va hodisaga munosabatini psixologik-pedagogik tashxisga oid yangi metodikalar asosida o'rganish, tahlil etish va zarur ko'rsatmalar berish;

o'quvchilarning qiziqishlari, moyilliklari, iste'dodi va iqtidoridagi asosiy yo'nalishlarni aniqlash;

ta'lim muassasasiga qabul qilingan o'quvchilarning psixologik moslashuvi va rivojlanish dinamikasini, o'quvchilarning o'qishga tayyorgarlik holatlari, o'zlashtirishi va rivojlanishiga to'sqinlik qilayotgan omillarni aniqlash, o'rganish, tahlil qilish va tavsiyalar ishlab chiqish;

ta'lim muassasasining keyingi bosqichlariga o'tgan o'quvchilarning yangi ijtimoiy muhitga moslashuvi, o'quv faoliyati, bilim, ko'nikma va malakalarni egallash dinamikasi, shaxs sifatleri, shaxslararo munosabatlar shakllanishini kuzatib borish, tahlil etish, korreksion mashg'ulotlarni tashkil etish;

psixologik-pedagogik tashxislar, so'rovnomalar, suhbatlar orqali o'quvchilarning kasbiy qobiliyatlari, qiziqishlari va fanni o'zlashtirishga bo'lgan moyilliklarini aniqlash, ularning ongli ravishda kasb-hunar tanlashlariga ko'maklashish, ta'limning keyingi bosqichlarida o'qishni davom ettirish uchun o'quvchilar va ota-onalarga tavsiyalar berish va yo'naltirish;

ijtimoiy-psixologik muammolari mavjud hamda fanlarni o'zlashtirishi past bo'lgan o'quvchilar bilan psixologik-pedagogik tashxislar, so'rovnomalar, suhbatlar o'tkazish orqali muammo turini aniqlash, guruhlash va ular bilan korreksion ishlarni olib borish;

v) psixologik profilaktika yo'nalishida:

o'quvchilardagi barcha salbiy holatlar va moyilliklarning oldini olish bo'yicha pedagog xodimlar va ota-onalar uchun tavsiyalar ishlab chiqish;

o'quvchilarning tengdoshlari va kattalar bilan o'zaro munosabatlarida psixologik shikast yetkazuvchi omillarni bartaraf etishda yordam ko'rsatish;

o'quvchilar o'rtasidagi huquqbuzarlik va jinoyatchilikning oldini olish bo'yicha olib boriladigan profilaktika ishlarida ishtirok etish;

o'quvchilar xulq-atvoridagi salbiy holatlarning oldini olish, ruhiy zarba, nizo, salbiy emotsional kechinmalar holatlari yuzaga kelishining oldini olish;

salomatligi jihatidan imkoniyati cheklangan o'quvchilarni psixologik qo'llab-quvvatlash;

mahalliy davlat hokimiyati organlari, sog'liqni saqlash, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish va huquqni muhofaza qiluvchi organlar xodimlari, ota-onalar bilan uchrashuvlar, suhbatlar, seminar-treninglar, munozaralar va ochiq muloqotlar tashkil etish, taqdimotlar va videofilmlar namoyishlarini o'tkazish;

g) psixologik korreksiya yo'nalishida:

ta'lim olish va kasb-hunar tanlashda qiynalayotgan o'quvchilar, shaxsning motivatsion doirasi bilan bog'liq muammolarni hal etish borasida individual va jamoaviy korreksiya ishlarini olib borish;

yetim va ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarning psixologik reabilitatsiyasini ta'minlash;

mutaxassis sifatida o'quvchining psixologik holatiga oid ma'lumotlarga munosabat bildirish, tarbiyasida salbiy holatlar mavjud bo'lgan o'quvchilar bilan korreksion ishlarni amalga oshirish;

ta'lim olish jarayonida o'quvchilarning bilish faolligi hamda qiziqishlarini rivojlantirish, ularning intellektual passivligini korreksiyalash;

individual yoki jamoaviy tartibda ota-onalar va pedagog xodimlarni jalb etgan holda o'yin, muloqot, suhbat, trening, mashq va mashg'ulotlar shaklida tadbirlar tashkil etish;

d) psixologik maslahat yo'nalishida:

o'quvchilarning individual rivojlanishidagi muammolarni hal etish bo'yicha barcha ta'lim jarayoni qatnashchilariga maslahatlar berish;

o'quvchilarga ta'lim olish, kelajagini aniqlash, tengdoshlari va yoshi kattalar bilan munosabatlaridagi muammoli holatlar yuzasidan maslahatlar berish;

o'quvchilarning psixik rivojlanish xususiyatlari, shaxs sifatida shakllanishi, shaxslararo munosabat maqomi, ularning yosh, jins, individual-tipologik xususiyatlari muammosi bo'yicha amaliy maslahatlar tashkil etish;

e) kasb-hunarga yo'naltirish yo'nalishida:

o'quvchilarga turli kasblar, ixtisosliklar, mansab lavozimlari, tanlangan kasbni, ixtisoslikni egallash mumkin bo'lgan ta'lim muassasalari hamda kasbning insonga, uning jismoniy, psixologik va shaxsiy sifatlariga, salomatligiga qo'yiladigan talablari haqida ma'lumotlar berish;

o'quvchilarning bilish (o'quv predmetlariga, fanga) va kasbiy (kasblarga, mutaxassisliklarga) qiziqishlarini, kasb tanlash motivlari va kasbiy rejalarini aniqlash hamda baholash;

o'quvchilarga ularning individual xususiyatlari va mehnat bozori talablarini, ta'lim olish hamda kelgusida ishga joylashish imkoniyatlarini hisobga olgan holda kasb va ta'lim muassasasini tanlashga ko'maklashish;

o'quvchilarda mehnat ko'nikmalarini, kasblarga qiziqish, mehnatsevarlik, ishchanlik va mas'uliyatni shakllantirish hamda rivojlantirish.

“Aholiga psixologik yordam ko'rsatish” to'g'risida O'zbekiston Respublikasining 989-sonli Qonuni 10-moddasida “Ta'lim tashkilotlarida psixologik yordam ko'rsatish” Maktabgacha, umumiy o'rta, o'rta maxsus va professional ta'lim tashkilotlarida ta'lim oluvchilarning psixologik salomatligini saqlash, sog'lom psixologik muhit yaratish va ularning shaxsiy rivojlanishiga ko'maklashish maqsadida psixologik yordam ko'rsatish tashkil etilishi belgilangan.

Davlat ta'lim tashkilotlarida psixologik yordam ko'rsatish psixologik xizmatlar faoliyatini tashkil etish orqali amalga oshiriladi.

Ta'lim tashkilotlarida psixologik yordam ko'rsatuvchi psixolog tegishli fan bo'yicha o'qituvchi, ta'lim tashkiloti rahbari, ta'lim oluvchining qonuniy vakillari bilan doimiy hamkorlikda ish olib borishi, ularga kasbiy maslahatlar berishi, ta'lim oluvchilarning psixologik holati va ehtiyojlari haqida ularning qonuniy vakillariga ma'lumotlar berishi, shuningdek zarur hollarda psixologik yordam ko'rsatishni ular bilan birgalikda tashkil etishi kerak.

“Aholiga psixologik yordam ko'rsatish” to'g'risida O'zbekiston Respublikasining 989-sonli Qonuni belgillangan huquq va majburiyatlari:

13-modda. Psixologik yordam ko'rsatish huquqiga ega bo'lgan shaxslar.

Psixologiya yo'nalishi bo'yicha oliy ma'lumotga ega bo'lgan shaxslar psixologik yordam ko'rsatish bo'yicha faoliyat bilan shug'ullanish huquqiga ega.

Psixologiyadan boshqa ta'lim yo'nalishi bo'yicha oliy ma'lumotga ega bo'lgan shaxslar psixologiya mutaxassisligi bo'yicha qayta tayyorlash kurslarini o'taganligi to'g'risidagi tegishli hujjatni olganidan keyin davlat organlarida, shu jumladan ta'lim tashkilotlarida tegishli psixologik yordam turlarini belgilangan tartibda ko'rsatishga haqli.

Xususiylar tartibda psixologik yordam ko'rsatish bo'yicha faoliyat bilan shug'ullanishga O'zbekiston Respublikasida ro'yxatdan o'tgan psixologlarning jamoat birlashmasi tomonidan malaka sertifikati berilgan psixologlarga ruxsat etiladi. Bunda talabgor O'zbekiston Respublikasida faoliyat yuritayotgan faqat

bitta psixologlarning jamoat birlashmasidan malaka sertifikatini olishi mumkin.

Psixologiyadan boshqa ta'lim yo'nalishi bo'yicha oliy ma'lumotga ega bo'lgan shaxslar xususiy tartibda psixologik yordam ko'rsatish faoliyati bilan shug'ullanish uchun psixologiya mutaxassisligi bo'yicha qayta tayyorlash kurslarini o'taganligi to'g'risidagi tegishli hujjatga, shuningdek malaka sertifikatiga ega bo'lishi kerak. Bunda ushbu shaxslar psixologik yordamning faqat psixologik maslahat va psixologik trening turlarini ko'rsatish huquqiga ega bo'ladi.

Malaka sertifikatini berish, uning amal qilishini to'xtatish va tugatish tartibi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

Psixologik yordam ko'rsatish huquqiga ega bo'lmagan shaxslar tomonidan o'z xizmatlarini reklama qilishda yoki firma nomida "psixolog" degan so'zdan, shuningdek unga o'xshash bo'lgan boshqa so'zlardan foydalanish taqiqlanadi.

14-modda. Psixologning huquq va majburiyatlari

Psixolog quyidagi huquqlarga ega:

o'z sha'ni, qadr-qimmati va ishchanlik obro'sini himoya qilish;
psixologlarning jamoat birlashmalarini tashkil etish;
psixologik yordam ko'rsatganligi uchun shartnomaga muvofiq haq olish;

ushbu Qonunda nazarda tutilgan asoslarga ko'ra psixologik yordam ko'rsatishni rad etish yoki tugatish.

Psixolog qonunchilikka muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo'lishi mumkin.

Psixolog:

psixologik yordam ko'rsatilishini so'rab murojaat qilgan shaxsga psixologik yordamning shakli, turi to'g'risidagi axborotni va boshqa zarur axborotni taqdim etishi;

psixologik yordam ko'rsatishda psixologik yordam ko'rsatishni so'rab murojaat qilgan shaxsga nisbatan insoniy muomalada bo'lishi, uning sha'ni, qadr-qimmatini va ishchanlik obro'sini hurmat qilishi;

psixologik yordam ko'rsatish jarayonida o'ziga ma'lum bo'lib qolgan kasbiy sirni va shaxsga doir ma'lumotlarni qonunchilik talablariga muvofiq oshkor etmasligi;

pullik asosda psixologik yordam ko'rsatilganda psixologik yordam ko'rsatish to'g'risida shartnoma tuzish talabiga rioya etishi;

psixologik yordam ko'rsatish standartlariga va psixologlarning odob-axloq kodeksi talablariga rioya etishi;

psixologik yordam ko'rsatishning ruxsat etilmagan usullari va vositalaridan foydalanmasligi, **shu jumladan jismoniy yoki ruhiy zo'ravonlik ishlatmasligi;**

psixologik yordam ko'rsatish chog'ida vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risidagi qonunchilik talablariga rioya etishi, shu jumladan diniy ta'limotdan saboq bermasligi, diniy aqida va g'oyalarni targ'ib qilmasligi, diniy mazmundagi materiallarni tarqatmasligi, u yoki bu dinga ustuvorlik bermasligi yoxud uni kamsitmasligi;

psixologik yordam ko'rsatishda huquqbuzarlik yoki jinoyat sodir etishga, o'z joniga suiqasd qilishga, qimor va tavakkalchilikka asoslangan boshqa o'yinlarda ishtirok etishga yoki g'ayriijtimoiy xulq-atvorning boshqa shakllariga da'vat qilmasligi;

psixologik yordam ko'rsatilishini so'rab murojaat qilgan shaxsning yoki uning qonuniy vakilining talabiga ko'ra malaka sertifikatini ko'rsatishi, shuningdek psixologik yordamning shakli, turi va boshqa ma'lumotlar ko'rsatilgan hujjatdan ko'chirma berishi shart.

Psixologning zimmasida qonunchilikka muvofiq boshqa majburiyatlar ham bo'lishi mumkin.

2. Maktab psixologining huquq va majburiyatlarini belgilovchi hujjatlar va mohiyati.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 12-iyuldagi 577-son qaroriga 1-ilova bilan tasdiqlangan **"Umumiy o'rta va o'rta maxsus davlat ta'lim muassasalarida psixologik xizmat faoliyatini tashkil etish to'g'risida nizom"**ning 4-bob. **"Psixologik xizmat faoliyatini tashkil etish"** 8-18 bandlarida:

8. Ta'lim muassasasida psixologik xizmat muassasa rahbarining buyrug'iga muvofiq o'quvchilar sonidan kelib chiqib 1 — 3 ta shtat birligidan iborat tarkibda tashkil etiladi.

O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirining "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirining 2019-yil 28-dekabrda 406-son buyrug'i bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi tizimidagi umumta'lim muassasalari boshqaruv texnik xizmat ko'rsatuvchi va o'quv-yordamchi xodimlarining namunaviy shtatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida" 2024-yil 30-avgustdagi 288-sonli buyrug'iga muvofiq:

"3. Psixolog lavozimi o'quvchilar sonidan kelib chiqib, quyidagi miqdorlarda kiritiladi:

1500 nafargacha bo'lganda 1,0 birlikdan;

1500 nafar va undan ortiq bo'lganda 2,0 birlikdan."

Psixologik xizmatning psixolog kadrlari (keyingi o‘rinlarda psixolog kadrlar deb ataladi) soni bir nafardan ortiq bo‘lganda ulardan biriga psixologik xizmat rahbarligi yuklanadi.

9. Psixolog kadrlar lavozimiga qo‘yiladigan malaka talablari tegishli ravishda O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi hamda Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi tomonidan Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi bilan birgalikda belgilanadi.

10. Ta’lim muassasalarida psixologik xizmat faoliyatining nazorati bevosita ta’lim muassasasi rahbari tomonidan amalga oshiriladi. Psixolog kadrlar o‘z faoliyati doirasida bevosita ta’lim muassasasi rahbariga bo‘ysunadi.

Psixolog kadrlar ta’lim muassasasining pedagog xodimlari bilan birgalikda o‘quvchilarning psixologik holati, muassasaning psixologik muhiti, korreksion-rivojlantiruvchi va profilaktik tadbirlarning amalga oshirilishi, kasb-hunarga yo‘naltirish va tashxis qo‘yish faoliyati uchun mas’ul hisoblanadi.

11. Psixolog kadrlar o‘z faoliyatini ta’lim muassasasining ichki tartib-qoidalariga hamda o‘quv dasturi va o‘quv rejasida belgilangan dars mashg‘ulotlari o‘tkazilishini inobatga olgan holda amalga oshiradi.

12. Ta’lim muassasalarida psixolog kadrlar uchun haftasiga 36 soatli ish tartibi joriy etiladi.

13. Ta’lim muassasasi rahbariyati tomonidan psixolog kadrlarning faoliyat olib borishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratib beriladi.

14. Psixolog kadrlar malakasini oshirish muvofiqligi bo‘yicha tegishli muassasalarda har uch yilda kamida bir marta amalga oshiriladi.

15. Psixolog kadrlarning vazifalari va funksiyalari ta’lim muassasasi ustavida belgilanadi.

16. Ta’lim muassasalarida psixologik xizmatning faoliyati tegishliligi bo‘yicha Respublika tashxis markazi, O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi tomonidan tasdiqlangan namunaviy ish reja asosida tashkil etiladi.

17. Psixolog kadrlarning ish rejasi ta’lim muassasasining pedagogik kengashi qarori asosida namunaviy ish rejaga muvofiq tasdiqlanadi.

18. Psixologik xizmatning tashkiliy, ilmiy-metodik va dasturiy ta’minoti tegishli ravishda Respublika tashxis markazi hamda O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi tomonidan boshqa manfaatdor vazirliklar va idoralar bilan birgalikda amalga oshiriladi.

Maktabgacha va maktab ta’limi vazirining 2024-yil 16-oktabrdagi **“Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi markaziy apparati, hududiy**

bo'linmalarining nizomlari hamda vazirlik huzuridagi institutlar, tasarruf tashkilotlari va ta'lim muassasalari xodimlarining lavozim yo'riqnomalarini yangitdan tasdiqlash to'g'risida" 334-son buyrug'ining **5- bob, 19-bandida Psixolog kadrlar:**

ta'lim muassasasini boshqarishda qatnashish;

ta'lim muassasasi pedagog xodimlari uchun belgilangan barcha kafolatlar va imtiyozlardan foydalanish, jamoat birlashmalariga saylash va saylanish;

o'quvchilar, ularning ota-onalari, shuningdek, ta'lim muassasasi pedagoglari bilan olib boriladigan ishlarning muayyan yo'nalishlarini mustaqil shakllantirish;

ta'lim muassasasi rahbariyatidan o'zining faoliyat olib borishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratib berilishini talab qilish;

ta'lim muassasasi rahbariyati bilan kelishgan holda sinfdagi va sinfdan tashqaridagi mashg'ulotlarda hamda boshqa tadbirlarda o'quvchilarning xulq-atvori hamda individual xususiyatlarini, ularning o'qishga va pedagog xodimlarga bo'lgan munosabatlarini o'rganish maqsadida ishtirok etish;

dars mashg'ulotlari, ma'naviy-tarbiyaviy tadbirlar va sport musobaqalarini kuzatish, tahlil qilish, o'quvchilarning shaxsiy hujjatlari bilan tanishish, zarur taklif va maslahatlar berish;

ta'lim muassasasining pedagogik va metodik kengashlarida ishtirok etish, o'z yo'nalishi bo'yicha takliflar berish;

ilg'or xorijiy tajribani inobatga olib psixologik-pedagogik tashxisga oid yangi metodik dasturlarni ishlab chiqish, **tajriba-sinovdan o'tkazishda qatnashish**, ularni amaliyotga joriy etishda ishtirok etish;

ta'lim muassasasi rahbariyatining qonun hujjatlariga zid ravishda berilgan topshiriq va ko'rsatmalarini bajarmaslik;

o'quvchilarning hayoti va faoliyatiga doir turli ishchi guruhlar va komissiyalar ishida o'z ixtiyoriga ko'ra qatnashish, fikrlar bildirish, ularda qabul qilingan qarorlar ustidan yuqori turuvchi tashkilotlarga murojaat qilish;

davlat va nodavlat notijorat tashkilotlarga, huquqni muhofaza qiluvchi organlarga o'quvchilarning huquq va manfaatlarini himoya qilish yuzasidan iltimosnomalar berish.

Psixolog kadrlar qonun hujjatlariga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo'lishi mumkin.

20. Psixolog kadrlar:

ta'lim muassasasining ichki tartib-qoidalariga rioya qilish va o'quvchilarni psixologik ta'sirlardan himoya qilishga;

o'zining kasbiy ko'nikmalari va mahoratini doimiy ravishda takomillashtirish hamda belgilangan muddatlarda o'z malakasini oshirib borishga;

psixologik-pedagogik tashxis natijalarini to'g'ri rasmiylashtirish, tashxis natijalari bo'yicha asoslangan tavsiyalar berishga;

faoliyatini ish rejasi asosida tashkil etishga, amalga oshirishga, ish rejasining ijrosi bo'yicha hisobotlar tayyorlashga;

psixologik ma'rifat, tashxis, psixologik profilaktika, korreksion-rivojlantiruvchi, maslahat tadbirlarini sifatli tashkil etish va muddatlariga rioya qilishga;

ta'lim jarayoni ishtirokchilarining shaxsiy ma'lumotlari hamda tashxis natijalariga oid ma'lumotlarini oshkor etmaslikka majbur.

Psixolog kadrlar qonun hujjatlariga muvofiq boshqa majburiyatlarni ham olishi mumkin.

8. Psixologning lavozim majburiyatlari

O'quvchilarni muassasalarda tarbiyalash va o'qitish jarayonida ruhiy, jismoniy (somatik) va ijtimoiy farovonligini muhofaza qilishga yo'naltirilgan kasbiy faoliyatni amalga oshirish;

Bola huquqlari to'g'risidagi Konvensiyaga muvofiq shaxs huquqlarini himoya qilishga, ta'lim muassasasi ijtimoiy sohasini uyg'unlashtirishga ko'maklashish va ijtimoiy jihatdan ko'nika olmaslik hollari yuzaga kelishining oldini olish bo'yicha tadbirlarni amalga oshirish;

o'quvchilar rivojlanishiga to'sqinlik qilayotgan omillarni aniqlash va turli ko'rinishdagi psixologik yordam (psixokorreksiya, reabilitatsiya va konsultasiya) berish bo'yicha tadbirlarni amalga oshiradi, o'quvchilar, ota-onalar (ularning o'rnini bosuvchi shaxslar), pedagogik jamoaga aniq muammolarni hal qilishda yordamlashish;

turli yo'nalish va maqsadlarda psixologik diagnostika o'tkazish, ruhiy, jismoniy va aqliy qobiliyat, moyillik, imkoniyat kabi sifatlarni aniqlash uchun testlar o'tkazish, test natijalarini tahlil qilish va baholash;

bola ruhiyatidagi salbiy o'zgarishlarni aniqlash va ularni bartaraf etishga qaratilgan tadbirlarni amalga oshirish, bu borada tegishli davlat idoralari bilan hamkorlik ishlarini olib borish;

turli yosh davrlarida o'quvchilarning shaxsiy, aqliy va ijtimoiy rivojlanishini psixologik jihatdan kuzatib borish, ta'lim-tarbiyadagi psixologik nuqsonlarni aniqlash, ularning aqliy taraqqiyotida sodir bo'lishi mumkin bo'lgan har qanday salbiy og'ishlarning oldini olishga qaratilgan tadbirlarni tashkil etish;

o'quvchilar shaxsining individual yosh xususiyatlari, jinsini hisobga olib ta'lim faoliyatining rivojlantiruvchi va tuzatuvchi dasturlarini rejalashtirish va ishlab chiqishda ishtirok etish, ularda hayotiy va kasbga yo'nalish olishning turli vaziyatlariga moslashuvchanlikka tayyorgarlikni rivojlantirishga ko'maklashish;

korreksion-rivojlantiruvchi mashg'ulotlarga muhtoj bo'lgan o'quvchilarni to'liq qamrab olinishi bo'yicha ish olib borish hamda **7-sinfdan interaktiv so'rovnomalar o'tkazish va shu asosda kasb-hunarga bo'lgan qiziqishini aniqlash va ularning ma'lumotlar bazasi yaratish;**

emotsional-hissiy zo'riqishlar, xavotirlik darajasi yuqori va o'ziga ishonchi past bo'lgan bolalar uchun **korreksion-rivojlantiruvchi mashg'ulotlar tashkil etish, o'quvchilarni kasbga yo'naltirish maqsadida seminar-treninglar hamda soha mutaxassislari bilan davra suhbatlarini tashkil etish, shuningdek, kasbiy moyilligi bo'yicha professional ta'lim olishi mumkin bo'lgan o'quvchilar o'rtasida kasbga yo'naltirish;**

maktab bitiruvchilarini ta'limning keyingi bosqichiga to'g'ri yo'naltirish yuzasidan o'quvchilar va ularning ota-onalari o'rtasida targ'ibot-tashviqot ishlarini olib boradi hamda korreksion-rivojlantiruvchi mashg'ulotlarga muhtoj bo'lgan o'quvchilarni, ota-onalar va pedagoglar to'liq qamrab olingani va o'quvchi-yoshlar o'rtasida deviant xulq atvor ko'rinishlarining (zo'ravonlik, o'zjoniga qasd qilish, erta tug'ruq) oldini olish;

iqtidorli o'quvchilarni psixologik jihatdan qo'llab-quvvatlash, ularning rivojlanishi va izlanishlariga ko'maklashish;

o'quvchilarning rivojlanishidagi (aqliy, jismoniy, hissiy), turli ko'rinishdagi ijtimoiy rivojlanishidagi muammolarni aniqlash va ularni psixologik-pedagogik jihatdan tuzatishni amalga oshirish;

pedagogik jamoalarda sog'lom psixologik muhitni yaratish va qo'llab-quvvatlash, jamoa a'zolarining hissiy-emotsional holatlari, shaxslararo munosabatlar va ziddiyatli xatti harakatlarni korreksiyalash, ularning psixologik madaniyatini yuksaltirish bo'yicha ishlarni olib borish;

o'quvchilarning individual-psixologik, fiziologik xususiyatlari va qiziqishlarini o'rganish, qobiliyatlarini namoyon etishlari va rivojlantirishlari uchun amaliy yordam ko'rsatish;

axborot-psixologik xurujlarning xavfi, **internet jahon axborot tarmog'ining salbiy ta'siri, yoshlar tarbiyasiga xavf solayotgan "ommaviy madaniyat"ning kirib kelishi holatlarining oldini olishga qaratilgan tadbirlarni o'tkazish;**

pedagog xodimlar, o'quvchilar hamda ota-onalarning psixologik-pedagogik bilimlarini oshirishga ko'maklashish, pedagog xodimlar, ota-onalar va jamoat tashkilotlarining samarali hamkorligini ishlarini olib borish;

o'qituvchilar jamoasi va ota-onalarga o'quvchilarning shaxs va **Ijtimoiy jihatdan rivojlanishi muammolari bo'yicha yo'nalish berish maqsadida o'rganish natijalariga ko'ra psixologik-pedagogik xulosa tayyorlash;**

ta'lim muassasasi xodimlarini o'quvchilar, pedagog xodimlar, ota-onalar (ularning o'rnini bosuvchi shaxslar) ijtimoiy-psixologik xabardorlik darajasini oshirishga yo'naltirilgan psixologiyani amalda qo'llash, muassasaning rivojlanishi masalalarida maslahatlar berish;

o'z kasbiy malakasini muntazam ravishda oshirib borish va boshqa ko'rinishdagi metodik ishlarda qatnashish;

ta'lim-tarbiya jarayoni ishtirokchilarining sha'ni, qadr-qimmatini va ishchanlik obro'sini hurmat qilish;

ta'lim muassasasi obro'si va sha'niga putur yetkazishi mumkin bo'lgan ma'lumotlarni tarqatmaslik hamda davlat siriga kiritilgan ma'lumotlar va maxfiy axborot bilan ishlashda qonun hujjatlari talablariga rioya qilish;

ta'lim muassasasi ustavi, kasbiy odob-axloq qoidalari, sanitariya-gigiyena, ichki mehnat tartibi, mehnatni muhofaza qilish, texnika va yong'in xavfsizligi qoidalari talablariga rioya qilish;

foydalanish uchun o'ziga topshirilgan mebel, xona jihozlari, tashkiliy va maishiy texnikadan oqilona foydalanilishi va but saqlanishini hamda o'zi ish olib boradigan xonada yong'in xavfsizligi talablariga rioya qilinishini ta'minlash;

qonun hujjatlariga muvofiq boshqa funksiyalarni ham amalga oshirishi mumkin.

Maktab psixologlari tomonidan qayd etiladigan daftarlar

1. Rivojlantiruvchi mashg'ulot va profilaktik tadbirlarni qayd etish (sinf, korreksion guruh, pedagogik jamoa, ota-ona) daftari;
2. O'tkaziladigan individual va guruhviy maslahatlarni qayd etish daftari.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining **"Iqtidorli yoshlar bilan ishlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"** 2024-yil 30-sentabrdagi **PQ-346-sonli** qaroriga muvofiq:

Xodimlari mehnatiga haq to'lash bo'yicha bazaviy tarif stavkalari miqdorlari¹

T/r	Lavozimlar nomi	Mehnatga haq to'lashning eng kam miqdoriga nisbatan (koeffitsiyentda)				
		oliy malaka toifali	birinchi malaka toifali	ikkinchi malaka toifali	oliy ma'lumotli	o'rta maxsus ma'lumotli
1.	Umumiy o'rta tipdagi muassasalar psixologlari, "Mehribonlik" uylari va bolalar shaharchalari psixologlari	3,205	3,022	2,829	2,642	2,470
2.	Barcha tipdagi muassasalarning psixologi (7-banddan tashqari) va maktabdan tashqari muassasalari instruktor-metodisti (3 va 11-bandlardan tashqari)	1,795	1,668	1,547	1,430	1,321

O'quvchilarni ta'lim muassasasining ichki nazorat ro'yxatiga olish tartibi O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligining 2020-yil 18-dekabrda 308-sonli "Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida ijtimoiy jihatdan xavfli ahvolda bo'lgan voyaga yetmaganlar bilan yakka tartibda shug'ullanishni tashkil etish va nazorat qilish tartibi to'g'risidagi yo'riqnomani tasdiqlash haqida"gi buyrug'i asosida ishlab chiqilgan "YO'RIQNOMA" orqali tashkil etiladi.

Quyidagi toifadagi o'quvchilar ta'lim muassasasining ichki nazorat ro'yxatiga olinadi:

o'rnatilgan tartibda ichki ishlar organlarining profilaktik hisobiga olingan nazoratsiz yoki qarovsiz qolgan;

ta'lim muassasalaridagi mashg'ulotlarga uzrli sabablarsiz kelmayotgan yoki muntazam ravishda qatnashmayotganlar;

tarbiyasi og'ir, janjalkash, guruhbozlikni targ'ib qiluvchilar;

maktabning ichki tartib va odob-axloq qoidalarini muntazam ravishda buzuvchi o'quvchilar;

notinch oilalar farzandlari;

ta'lim muassasalariga taqiqlangan buyumlar (o'tkir tig'li jismlar, o'yin kartasi, turli zararli kimyoviy moddalar va pirotexnik vositalar, maxsus gaz

¹ <https://www.lex.uz/uz/docs/-7145231>

sachratuvchi moslamalar ma'naviyat va xulqiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi boshqa predmetlar)ni olib kirgan yoki olib kirishga uringanlar;

“O'quvchi” reydi davomida aniqlanganlar;

o'quvchilar orasida o'tkazilgan psixologik so'rovnomalar natijasida ruhiy holatida salbiy o'zgarishlar aniqlangan o'quvchilar.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining **“Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”** 2020-yil 13-oktabrdagi PQ-4860-son qarori ijrosini ta'minlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining **“Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim berishga oid normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida”** 2021-yil 12-oktabrdagi 638-sonli qaroriga muvofiq maktab psixologi:

inklyuziv ta'lim yoki boshlang'ich tayanch korreksion sinf tashkil etilgan umumiy o'rta ta'lim maktablarida sog'lom ijtimoiy muhit shakllantirish;

har bir o'quvchining psixik salomatligini himoyalash;

o'quvchini individual rivojlantirish (oilada va inklyuziv ta'lim sharoitida ta'lim berish) dasturlarini tuzish;

o'quvchilar bilan guruhlarda mashg'ulotlar olib borish;

o'quvchilarni doimiy ravishda psixolog-pedagogik jihatdan o'rganish va ularni tarbiyalash bo'yicha ota-onalarga (alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar hamda boshqa (sog'lom) bolalarning ota-onalariga) maslahatlar berish.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 30-yanvardagi **“O'zbekiston-2030” strategiyasini “Atrof-muhitni asrash va “yashil iqtisodiyot” yilida amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida”gi PF-16-son Farmonining** 1-ilova 5-bandi:

ta'lim jarayoni ishtirokchilarini psixologik qo'llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish;

ta'lim oluvchilarga nisbatan zo'ravonlikka moyilligi mavjud pedagog kadrlarni aniqlash va ularga psixologik yordam berish mexanizmlarini joriy etish (*“Ta'lim jarayoni ishtirokchilarini psixologik qo'llab-quvvatlashni tashkil etish to'g'risidagi” nizom loyihasi ishlab chiqilib Markazning 2025-yil 21-iyul kuni 01-02/5-386-sonli xati bilan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Ijtimoiy himoya milliy agentligiga, Maktabgacha va maktab ta'limi, Sport, Madaniyat, Ichki ishlar vazirligiga yuborildi va tegishli takliflar olindi*);

bulling, suitsid, voyaga yetmaganlar jinoyatini oldini olish, oqibatlarini bartaraf etish bo'yicha pedagog kadrlar uchun interaktiv usullarni o'zida mujassam etuvchi maxsus kurs va dasturlar ishlab chiqish (*Ta'limni*

rivojlantirish respublika ilmiy-metodik markazi tomonidan “Bulling, suitsid, voyaga yetmaganlar jinoyatchiligining oldini olish va oqibatlarini bartaraf etish bo'yicha” pedagog kadrlar (sinf rahbarlari, maktab psixologlari va direktor o'rinbosarlari) uchun malaka oshirishga mo'ljallangan maxsus kursning o'quv reja va dasturi ishlab chiqilib A.Avloniy nomidagi Milliy tadqiqot instituti Ilmiy kengashining 2025-yil 26-iyun kungi 6-son yig'ilishida amaliyotga joriy etish uchun tavsiya etildi.);

o'qituvchilarning kasbiy so'nishining oldini olish, stresslarga bardoshlilik darajasini oshiruvchi simulyator va keyslar yaratish (Ta'limni rivojlantirish respublika ilmiy- metodik markazi tomonidan “O'qituvchilarning kasbiy so'nishining oldini olish, stresslarga bardoshlilik darajasini oshiruvchi simulyator va keyslar to'plami” nomli o'quv uslubiy qo'llanma (rus va o'zbek tilida), “Ta'lim jarayoni ishtirokchilarini psixologik qo'llab-quvvatlashga yo'naltirilgan metodik resurslar” majmuasi ishlab chiqilib Markaz huzuridagi “Inklyuziv ta'lim va psixologiya” yo'nalishi bo'yicha Ilmiy-metodik kengashining 1-sonli yig'ilish bayoni bilan nashrga tavsiya etilgan, “Amaliy psixodiagnostika” nomli metodikalar to'plami (O'zbek va rus tilida), “Reggio pedagogikasi: kreativlikni rivojlantirishning samarali yo'li” (O'zbek tilida) nomli pedagoglar uchun tavsiyalar yaratilib Markaz huzuridagi Ilmiy-uslubiy Kengashining 2025-yil 21- apreldagi 1-sonli yig'ilish qarori bilan ma'qullangan) vazifasi yuklatildi.

Shuningdek, Ta'limni rivojlantirish respublika ilmiy-metodik markazi tomonidan ta'lim jarayoni ishtirokchilarini psixologik qo'llab-quvvatlash maqsadida “Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida psixolog xizmat xonalari hamda inklyuziv ta'lim joriy etilgan umumiy o'rta ta'lim muassasalarida maxsus pedagog xizmat xonalarini jihozlashga qo'yiladigan talablar” ishlab chiqilib, Markazning 2025-yil 5-maydagi 19-sonli buyrug'i bilan tasdiqlandi.

Markazning 2025-yil 8-maydagi 01-02/3-231-sonli xati bilan tegishli vazirlik va idoralar, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahri hokimliklariga ish faoliyatida qo'llash uchun taqdim etildi.

Xulosa

Psixologning huquq va majburiyatlarini aniq belgilab berib, ular qanday hollarda, kimlar bilan va qanday shakllarda psixologik xizmat ko'rsatishi mumkinligini ko'rsatadi. Ayniqsa, bolalarga nisbatan zo'ravonlikning oldini olish, ularni himoya qilish, maxfiylikka rioya etish, ota-onalar va pedagoglar bilan hamkorlik qilish masalalarida normativ asoslar muhim ahamiyatga ega.

Psixologlar uchun ushbu hujjatlar bilan ishlash nafaqat rasmiy talab, balki kasbiy madaniyat va mas'uliyatning muhim ko'rsatkichidir. Bu hujjatlarni puxta o'rganish va amaliyotda to'g'ri qo'llash — nafaqat bolaning ruhiy holatini asrash, balki butun ta'lim muhitida xavfsizlik va ishonchni mustahkamlashga xizmat qiladi.

Shu bois, har bir ta'lim muassasasi psixologi doimiy ravishda normativ hujjatlar bilan ishlashi, ularni yangilab borishi va o'z faoliyatini huquqiy mezonlar asosida tashkil qilishi zarurdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

Asosiy adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Qonuni. "Bolalarni zo'ravonlikning barcha shakllaridan himoya qilish to'g'risida". — Toshkent, 2024.
2. Bolalar huquqlari to'g'risida Konvensiya. Birlashgan Millatlar Tashkiloti, 1989.
3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 6-iyuldagi "Umumta'lim muassasalarida psixologik xizmat faoliyatini yanada takomillashtirish to'g'risida"gi 577-sonli qarori.
4. O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi. "Maktab psixologlari uchun metodik qo'llanma". — Toshkent: XTV nashriyoti, 2022.
5. O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirining 2025-yil 6-martdagi 81-sonli buyrug'i ilovasi – *"Zo'ravonlikni oldini olish, bartaraf etish hamda qarshi kurashish to'g'risida Nizom"*.
6. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 14-iyuldagi 440-sonli qarori – "Bolalarga nisbatan zo'ravonlik holatlarini aniqlash, zo'ravonlik xavfi darajasini baholash, himoya qilish rejasini ishlab chiqish hamda uni amalga oshirish tartibi to'g'risidagi Nizom".

Internet saytlari:

1. <https://lex.uz>
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi rasmiy sayti — <https://www.gov.uz>
3. O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi rasmiy sayti — <https://www.edu.uz>